Xalqaro huquqning josuslikka nisbatan o'ta sabr-bardoshli va tolerantligi Sirakuza universiteti huquq kolleji (AQSh) faxriy professori, Milliy xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashish instituti direktori (AQSh) U. Benks tomonidan qayd etilgan. U xalqaro huquqni bugungi kunda rivojlangan iqtisodiy josuslik va ommaviy elektron kuzatuv amaliyotining "befarq guvohi" deb ataydi (Banks, 2017). Garchi hozirgi *status quo* razvedka faoliyatini yuritish uchun yetarli moliyaviy va texnologik resurslarga ega bo'lgan davlatlarni qanoatlantirsa-da, bu holat shiddat bilan o'zgarmoqda. Kibermakon turli davlatlar pozitsiyalaridagi tengsizliklarni kamaytiradi: qudratli davlatlarning jiddiy kiberresurslari ularning davlat va xususiy sektorlarida sezilarli zaifliklarni taqozo etadi. Bu ularni josuslikni cheklash yo'llarini izlashga majbur qilmoqda.

N. Jupillat joriy xalqaro huquq salohiyati kiberjosuslik amaliyotining rivojlanishiga qarshilik ko'rsatish imkonini berishi haqidagi pozitsiyani himoya qiladi, chunki

kiberjosuslik an'anaviy josuslikdan, jumladan, unga huquqiy baho berishdan ancha farq qiladi. Muallif ma'lumotlarni masofaviy yig'ish usullarining bir nechta toifalarini ajratib ko'rsatib, agar uning obyekti bir davlatda joylashgan bo'lsa va tegishli faoliyat boshqa davlat tomonidan yoki uning nomidan amalga oshirilsa, kiberjosuslik deb tasniflanishi mumkin, deydi (Jupillat, 2017). Bu usullarga kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, aloqa vositalarini razvedka qilish yoki ushlash, davlat-xususiy sheriklik yoki xalqaro shartnomalar asosida faoliyat yurituvchi maxfiy axborot almashish dasturlarini kiritadi.

Kompyuter tarmoqlaridan foydalanish (shu jumladan, xakerlik hujumlari) majburlashdan foydalanish bilan bog'liq deb hisoblanishi mumkin, bu qilmishni boshqa davlatlarning ishlariga noqonuniy aralashuv sifatida kvalifikatsiya qilish sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, xakerlik hujumlari hududga noqonuniy kirish potensial shakli hisoblanadi, chunki davlatlar o'z hududida joylashgan davlat yoki xususiy kiber infratuzilmaga nisbatan suveren huquqlarga ega.

Aloqa vositalarini razvedka qilish yoki ushlash usuli raqamli asrda yangi, shu jumladan, ekstraterritorial va transmilliy xususiyatdagi imkoniyatlarga ega bo'ldi. Ushbu usuldan foydalanishning huquqiy kvalifikatsiyasi ushlash qayerda sodir bo'layotganiga bog'liq. Masalan, suvosti kabellariga ulanish (ular Internet-trafikning qariyb 99 foizini tashiydi) 1884-yildagi suvosti telegraf kabellarini himoya qilish bo'yicha xalqaro konvensiyaga zid bo'lishi mumkin.

Chet el hududida ushlash punktlari yoki maxsus serverlarni joylashtirish boshqa davlatlarning ishlariga noqonuniy aralashishning bir ko'rinishi, bunday infratuzilmani xalqaro rejimga ega bo'lgan hududlarda joylashtirish esa ulardan tinch maqsadlarda foydalanish maqsadiga zid bo'lishi mumkin. Shuningdek, ko'lam va kontekstga qarab, davlat o'z hududidan bevosita amalga oshirilgan aloqalarni ushlab qolishi ham noqonuniy bo'lishi mumkin.

Yashirin axborot almashish dasturlarini amalga oshirish, agar u hududida axborot to'plangan davlat qonunchiligiga zid bo'lsa yoki uchinchi davlatga qarshi qaratilgan bo'lsa, davlat suverenitetini ham buzishi mumkin. Bunday dasturlar davlat xizmatlarining internet provayderlar, telekommunikatsiya kompaniyalari, internet-kompaniyalar (ijtimoiy tarmoqlar, "bulutli" xizmatlar, servis ilovalari va boshqalar) bilan tuzilgan shartnomalari, shuningdek, xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

N. Jupillatning so'zlariga ko'ra, kiberjosuslik, bir qator sabablarga ko'ra davlatlar o'rtasida keskinlikning kuchayishi va nizolarning paydo bo'lishi xavfini yaratadi, bu uning misli ko'rilmagan miqyosi, o'ziga xos xususiyatlari va ehtimoliy oqibatlari bilan bog'liq (Jupillat, 2017). Kiberjosuslikning iqtisodiy samaradorligi va uning masofaviy tabiati Internetning tobora taraqqiy etib borishi bilan birgalikda ma'lumotlarni ommaviy yig'ish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek, uni an'anaviy shakllardagi josuslik amaliyotchilariga qaraganda kengroq davlatlar uchun ochib beradi. Zamonaviy texnologiyalar razvedka maqsadlarida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi. Natijada kiberjosuslik amaliyotida jiddiy "sakrash" sodir bo'ldi, bu esa, o'z navbatida, uning sifat xususiyatlari o'zgarishini keltirib chiqardi: an'anaviy, "bir nuqtaga qaratilgan" josuslik davlat manfaatlariga

kamroq zarar yetkazar edi va kirib borishi uncha chuqur emasdi. Bundan tashqari, kiberjosuslik moddiy yoki nomoddiy zarar yetkazish bilan birga bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, kiberjosuslikning ushbu o'ziga xos xususiyatlari uning xalqaro huquqiy kvalifikatsiya qilish va xalqaro huquqdagi an'anaviy josuslikning mavhum maqomi o'rtasidagi farqlarni ham belgilaydi. Aralashmaslik to'g'risidagi amaldagi xalqaro huquqiy konsepsiya tegishli aktlarning ko'lami va mazmunidan kelib chiqqan holda kiberjosuslik amaliyotining rivojlanishini cheklash imkonini beradigan koordinatalar tizimidir. Bir qator davlatlarda (Braziliya, Fransiya, Germaniya, AQSh) AQSh Milliy xavfsizlik agentligi tomonidan ommaviy kuzatuv faktlari aniqlangani munosabati bilan tutgan pozitsiyalari shuni ko'rsatadiki, bu miqyos kiberjosuslikni unchalik maqbul deb bilmaydi, chunki bu davlatlarga o'z hududida inson huquqlari asosiy kafolatlarini ta'minlashga imkon bermaydi.

Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo'l qo'yilmasligi xalqaro huquqiy tamoyili kiberjosuslik amaliyotining rivojlanishiga qarshi kurashishning eng asosiy huquqiy negizlaridan biri hisoblanadi. V. Banks boshqa yondashuvlarga ham e'tibor qaratadi (Reid, 2016). Jumladan, elektron kuzatuvni inson huquqlari nuqtayi nazaridan 1966-yildagi Fuqarolik siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasidagi shaxsiy hayotga o'zboshimchalik yoki noqonuniy aralashuvdan himoyalaniş kafolatlari va inson huquqlariga doir boshqa xalqaro bitim va shartnomalarning tegishli qoidalari buzilishi deb hisoblash mumkin. Shuningdek, davlatlar milliy xavfsizlik va boshqa maqsadlardagi (shu jumladan, iqtisodiy va tijorat) josuslikni farqlash, tor ma'noda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilmagan tegishli xatti-harakatlarga nisbatan muvofiqlik pozitsiyasini tanlashi mumkin. Buning uchun xalqaro miqyosda ichki huquqiy tartibga solish tajribasidan foydalanish mumkin, Jahon Savdo Tashkiloti mexanizmlari jalb qilinishi va 2001-yildagi Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar to'g'risidagi konvensiyaning tegishli qoidalari bilan to'ldirilishi mumkin.

Jinoyat obyekti, masalan, maxfiylik qoidalari bilan himoyalangan shaxsiy ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Shaxsning huquqlariga zarar yetkazilgan taqdirda (masalan, mualliflik huquqi egasining ma'naviy huquqlari buzilgan taqdirda) alohida pul miqdori talab qilinishi mumkin, uning jiddiyligi qo'shimcha alohida pul miqdori talabiga asos bo'ladi. Jumladan, ma'lumotlarning xususiyatiga qarab da'vogarning shaxsiy huquqlariga qo'shimcha zarar yetishi mumkin, ularning jiddiyligi qo'shimcha alohida pul miqdorini, shuningdek, ayrim yurisdiksiyalarda nazarda tutilgan qonun bilan belgilangan zarar undiruviga asos bo'ladi.

Milliy qonunchilikda zarar asosan ikki xil shaklda bo'ladi, da'vogar ko'rgan zarar yoki boy berilgan foyda sifatida belgilanadigan *haqiqiy zarar* (International Association for the Protection of Intellectual Property, 2017) va *asossiz orttirilgan boylik*, uning ostida huquqbuzar tomonidan huquqni buzgan holda asossiz ravishda olingan foyda tushuniladi.

Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra (Creative Commons, n.d.), ma'lumotlarning tarqalib ketishini shaxsiy ma'lumotga zarar sifatida tan olish uchun yetarli asos va dalillar bo'lishi talab etiladi. Darhaqiqat, shaxsiy ma'lumot to'varga aylanadi, chunki foydalanuvchilar odatda boshqa xizmatlar evaziga o'zlarining shaxsiy

ma'lumotlarini taqdim etishga rozi bo'ladilar. Internet uchun odatiy biznes modelida ushbu ma'lumotlar onlayn platformalar (ijtimoiy tarmoq, qidiruv tizimi, kontent va boshqalar) tomonidan boshqa mahsulot yoki xizmatlar uchun maqsadli reklama taklif qilishda ishlatiladi.

Bundan tashqari, bunday tizimlar o'z-o'zidan tashkil etilganligi sababli sun'iy intellektni qo'llashda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash masalalari tashvish uyg'otadi (Artificial Intelligence and the Legal Profession, 2017). Rivojlanayotgan yoki kutilayotgan muammolarni hal qilish muvozanatli yondashuvni talab qiladi, chunki haddan tashqari maxfiylik ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin (Bughin et al., 2017).

Ma'lumotlarni himoya qilish organlari shaxsiy ma'lumotlarga oddiy tovar sifatida qarashni istamasa ham, ma'lumotlarni baholash qiyin bo'lsa-da, ma'lumotlarni himoya qilishning yangi tizimi shaxsiy ma'lumotlar bozor almashinuvi va "shartnoma amaliyoti"ning bir qismi ekanligi g'oyasini ma'lum darajada tasdiqlab, axborotni mulk sifatida ko'radi.

Xususiylar sektorda Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va elektron hujjatlar to'g'risidagi federal qonun (PIPEDA) kompaniyalarning shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish tartibini belgilaydi, bunda axborot bilan ishlashning o'nta tamoyili joriy etilgan, ularga ma'lumotlarni qayta ishlashda maxfiylikni saqlash, aniqlik va haqqoniylik, ehtimoliy zararni kamaytirish, jismoniy shaxslar uchun kamsitilmaslik kafolatlarini o'z ichiga oladi (PIPEDA, 2019).

Linkoln Memorial universiteti Dunkan huquq maktabi (AQSh) professori M. Reyd iqtisodiy josuslikka qarshi kurashishda alohida davlatlarning tajribasini o'rgandi. U AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yaponiya va ayrim Lotin Amerikasi davlatlarining yondashuvlarini tahlil qildi va kiberjosuslik amaliyotining faol rivojlanishi va bu chaqiruvga global javob berishning kamchiliklarini qayd etdi (Reid, 2016). Muallif buning sabablarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, davlat va xususiylar sektor o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishga bo'lgan yondashuvlardagi farqlar, turli mamlakatlardagi madaniy va huquqiy tushunchalarning farqlanishi, milliy jinoyat qonunchilik siyosati yetarli darajada qat'iy emasligi bilan bog'laydi.

Demak, aytish mumkinki, kiberjosuslik jinoyati ruxsatsiz, noqonuniy, turli maqsadlarda himoyalangan ma'lumotlarga kirish jinoyati bo'lib, bu jinoyat kompyuter xavfsizlik tizimlarini chetlab o'tish natijasida yuz beradi. Jinoyatni amalga oshirishda maxsus josuslik dasturlari va troyanlar ishlatiladi. Kiberhujum mahalliy va xalqaro tarmoqqa hujum qilish orqali amalga oshiriladi.

Kiberjosuslik jinoyati siyosiy, harbiy, iqtisodiy va aralash toifada sodir etiladi. U mintaqaviy, davlat ichida yoki xalqaro miqyosda sodir etilishi mumkin. Kiberhujum yuqori malakali va obro'li shaxslar, korporatsiyalar yoki davlatlarga nisbatan qaratilgan bo'ladi. Joriy 2020-yilda rus fuqarosi va josusi Dmitriy Badin Germaniya kansleri Angela Merkelning elektron pochtasiga kiberhujum uyushtirgan va uning maxfiy ma'lumotlarini o'g'irlagan, bundan tashqari, 2015-yilda APT28 yashirin

guruh a'zosi sifatida faoliyat yuritgan bu shaxs o'sha davrda kansler va bundestag deputatlarining elektron pochta orqali ma'lumotlarni o'zlashtirgan. Shu sababli 2020-yil 5-mayda Germaniya federal prokurori ushbu shaxsga nisbatan hibsga olish haqida order bergan (Salim, 2020).

Kiberjosuslik uchun O'zbekiston Jinoyat kodeksining 160-moddasida, Xitoy Jinoyat kodeksining 311-moddasida (Chzhan, 2016; Makarova & Vasilenko, 2016), Fransiya Jinoyat kodeksining 411-1-moddasida (Romanovskiy, 2017), Litva Jinoyat kodeksining 119-moddasida (Government of the Republic of Lithuania, 2011), Qozog'iston Jinoyat kodeksining 176-moddasida (Republic of Kazakhstan, 2014), Tojikiston Jinoyat kodeksining 308-moddasida (Republic of Tajikistan, 1998), Qirg'iziston Jinoyat kodeksining 308-moddasida (Kyrgyz Republic, 2021), Ukraina Jinoyat kodeksining 114-moddasida (Ukraine, 2001), Belarus Jinoyat kodeksining 358-moddasida (Republic of Belarus, 1999), Latviya Jinoyat qonunining 85-moddasida (Republic of Latvia, n.d.) jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan.

Shu munosabat bilan, axborot texnologiyalarining keyingi rivoji, robototexnika turli maqsadlarni ko'zlab yaratilayotgani, texnologiyaning o'zi insoniyatga qarshi kurashish uchun vosita bo'lishi mumkinligi, davlatlarning xavfsizligi va suverenitetini saqlash va yuqorida ta'kidlangan holat respublika hududida ham sodir etilishining oldini olish maqsadida, bizningcha, kiberjosuslik jinoyati uchun alohida javobgarlik belgilash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Bugun kiberjosuslikning iqtisodiy samaradorligi va uning masofaviy tabiati Internetning tobora taraqqiy etib borishi bilan birgalikda ma'lumotlarni ommaviy yig'ish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek, uni an'anaviy shakllardagi josuslik amaliyotchilariga qaraganda kengroq davlatlar uchun ochib beradi.

Asosiy obyekt – siyosiy, harbiy, iqtisodiy va yaqindan beri shaxsiy ma'lumotlar.

Shaxsiy ma'lumot allaqachon tovarga aylandi, chunki foydalanuvchilar odatda boshqa xizmatlar evaziga o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etishga rozi bo'ladilar. Internet uchun odatiy biznes modelida ushbu ma'lumotlar onlayn platformalar (ijtimoiy tarmoq, qidiruv tizimi, kontent va boshqalar) tomonidan boshqa mahsulot yoki xizmatlar olishda talab qilinadi, ayni damda bu kiberjosuslar uchun yengil o'ljaga aylanmoqda.

Respublika hududida kiberjosuslik sodir etilishining oldini olish maqsadida kiberjosuslik jinoyati uchun alohida javobgarlik belgilash maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Anorboyev, U. (2020). Cybercrime in legislation Republics of Uzbekistan. *European Journal of Research volume*, 5(5), 20–28. 10.37057/2521-3261<https://journalofresearch.info/>

2. Artificial Intelligence and the Legal Profession. (2017). The Law Society's Horizon Scanning programme (pp. 14, 10). <https://www.lawsociety.org.uk/support-services/documents/AI-and-the-legal-profession-horizon-scanning-report/>
3. Banks, W. C. (2017). Cyber espionage and electronic surveillance: Beyond the media coverage. *Atlanta: Emory law journal*, 66(3), 513–525.
4. Bughin, J., Hazan, E., Ramaswamy, S., Chui, M., Allas, T., Dahlström, P., Henke, N., & Trench, M. (2017). Artificial intelligence: The next digital frontier? Discussion Paper. (p. 75; 37). McKinsey Global Institute <https://www.mckinsey.com//media/McKinsey/Industries/Advanced%20Electronics/Our%20Insights/How%20artificial%20intelligence%20can%20deliver%20real%20value%20to%20companies/MGI-Artificial-Intelligence-Discussion-paper.ashx>
5. Creative Commons. (n.d.). Creative Commons licenses. <https://creativecommons.org/licenses/>
6. Chzhan, T. S. (2016). Obzor k ugolovnoy zakonodatelstva o borbe s terrorizmom i «Zakona o borbe s terrorizmom» Kitaya» [Review of the Criminal Law on Counter-Terrorism and the Anti-Terrorism Law of China]. *Yevraziyskiy Nauchniy Jurnal [Eurasian Scientific Journal]*, 5, 230–235. SzanSzemey https://chinalaw.center/administrative_law/china_state_security_law_2015_russian/
7. Government of the Republic of Lithuania. (2011, June 29). Resolution No. 796 on the approval of the programme for the development of electronic information security (cyber-security) for 2011–2019. https://www.enisa.europa.eu/topics/national-cyber-security-strategies/ncss-map/Lithuania_Cyber_Security_Strategy.pdf
8. International Association for the Protection of Intellectual Property (AIPPI). (2017). Summary report: Study question on quantification of monetary relief (p. 3).
9. Jupillat, N. (2017). From the Cuckoo's Egg to global surveillance: cyber espionage that becomes prohibited intervention. *North Carolina Journal of International Law and Commercial Regulation*. Chapel Hill, 42(4), 974–978.
10. Karpova, D. N. (2014). Kiberprestupnost: globalnaya problema i yeye resheniye [Cybercrime: A Global Problem and Its Solution]. *Vlast [Power]*, 8, 46.
11. Kyrgyz Republic. (2021). Criminal Code of the Kyrgyz Republic. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru/111527>
12. Lubin, A. (2016). Espionage as a sovereign right under international law and its limits. Washington: *International law students association quarterly*, 24(3), 22–28.
13. Makarova, Y. Yu., & Vasilenko, A. A. (2016). Profilaktika i borba s kiberterrorizmom v Kitaye. Kitayskiy opit v Rossii [Prevention and combating cyberterrorism in China. The Chinese experience in Russia]. <https://core.ac.uk/download/pdf/155234277.pdf>
14. PIPEDA. (2019, May). Fair information principles. Office of the Privacy Commissioner of Canada. https://www.priv.gc.ca/en/privacy-topics/privacy-laws-in-canada/the-personal-information-protection-and-electronic-documents-act-pipeda/p_principle/.
15. Rasulev, A. (2018). Axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat- huquqiy va kriminologik choralarini takomillashtirish [Improving criminal, legal and criminological measures to combat crimes in the field



of information technology and security] (p. 5). [Doctoral dissertation abstract in legal sciences].

16. Reid, M. (2016). A comparative approach to economic espionage: is any nation effectively dealing with this global threat? Coral Gables: *University of Miami law review*, 70(3), 757–829.

17. Republic of Kazakhstan. (2014, July 3). Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. *Vedomosti Parlamenta Respubliki Kazakhstan [Gazette of the Parliament of the Republic of Kazakhstan]*. 13-I, 13-II, Art. 83.

18. Republic of Tajikistan. (1998, May). Criminal Code of the Republic of Tajikistan. The Supreme Council of the Republic of Tajikistan, No. 9, Art. 68; 69. No. 22, Art. 306.

19. Republic of Belarus. (1999). Criminal Code of the Republic of Belarus. https://kodeksy-by.com/dictionary/m/modifikatsiya_komp_yuternoj_informatsii.htm

20. Republic of Latvia. (1999). Criminal Code of the Republic of Latvia. <http://law.edu.ru/norm/norm.asp?normID=1243424&subID=100106935,100106943,100106966,100107135#text>

21. Romanovskiy, G. B. (2017). Ugolovnaya otvetstvennost za akty terrorizma vo Fransii [Criminal liability for acts of terrorism in France]. *Nauka. Obshchestvo. Gosudarstvo [Science. Society. State]*. 3(19). <http://esj.pnzgu.ru>

22. Salim, S. (2020). Rus josusi Angela Merkelning elektron pochta-siga o'g'rincha kirdi. Rasmiy Berlin bundan darg'azab... [A Russian spy hacked into Angela Merkel's email. Official Berlin is furious...]. <https://www.xabar.uz/uz/xorij/rus-josusi-angela-merkelning-elektron>

23. Ukraine. (2001, April). Criminal Code. *Vedomosti Verkhovnoy Radi Ukraini [Vedomosti of the Verkhovna Rada of Ukraine]*. No. 2341-III.

Kelib tushgan / Получено / Received: 28.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 22.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.4./RCFY8267

UDC: 343.37:343.1(045)(575.1)

IQTISODIY JINOYATLARNI TERGOV QILISH DAVOMIDA BAHOLASH XIZMATIDAN FOYDALANISH ASOSLARI

Raximova Ulzana Xamidullayevna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi dotsenti v. b.,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0000-0001-5879-5377

e-mail: ulzananar@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlar sonining ortib borayotgani munosabati bilan ushbu toifadagi jinoyatlar yuzasidan olib boriladigan dastlabki tergov jarayonida baholash xizmatlaridan foydalanishning huquqiy va amaliy asoslari yoritilgan. Xususan, davlat mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish, bojxona qonunchiligini buzish, soliq majburiyatlaridan bo'yin tovlash, noqonuniy tamaki va alkogol mahsulotlari savdosi, noqonuniy dori vositalari aylanmasi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish kabi iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida jinoyat sodir etishda foydalanilgan mol-mulk va jinoyat natijasida orttirilgan daromadlarning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida baholash o'tkazish hamda baholash hisobotini jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida e'tirof etish masalalari tahlil qilingan. Iqtisodiy jinoyatlar oqibatida yetkaziladigan moliyaviy zarar hajmini inobatga olgan holda byudjet xavfsizligini ta'minlashda baholash institutining muhim ahamiyatga egaligi asoslab berilgan. Shu munosabat bilan mazkur jinoyatlar bo'yicha olib boriladigan dastlabki tergov jarayonida dalillash tizimida baholash institutiga alohida va chuqur e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada iqtisodiy jinoyatlarni dalillash jarayonida baholash institutining o'рни va ahamiyatini aniqlash maqsadida xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari, baholash sohasiga oid milliy hamda xorijiy qonunchilik normalari tahlil qilingan hamda huquqni qo'llash amaliyotida uchraydigan holatlar misol tariqasida keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, baholash, iqtisodiy jinoyatlar, byudjet

ОСНОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОЦЕНОЧНЫХ УСЛУГ В ХОДЕ РАССЛЕДОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Рахимова Ульзана Хамидуллаевна,
доктор философии по юридическим наукам,
и. о. доцента кафедры «Уголовно-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье в связи с ростом количества экономических преступлений в Республике Узбекистан рассматриваются правовые и практические основы использования оценочных услуг в процессе предварительного расследования преступлений указанной категории. В частности, проанализированы вопросы проведения оценки и признания отчёта об оценке в качестве доказательства по уголовному делу при расследовании преступлений в сфере экономики и предпринимательской деятельности, таких как присвоение или растрата государственного имущества, нарушение таможенного законодательства, уклонение от исполнения налоговых обязательств, незаконный оборот табачной и алкогольной продукции, лекарственных средств, а также легализация доходов, полученных преступным путём, в целях установления действительной стоимости имущества, использованного при совершении преступления, и доходов, полученных в результате преступной деятельности. С учётом объёма финансового ущерба, причиняемого экономическими преступлениями, обоснована значимость института оценки в обеспечении бюджетной безопасности. В этой связи подчёркивается необходимость уделяния особого и углублённого внимания институту оценки в системе доказывания в ходе предварительного расследования указанных преступлений. Кроме того, в статье проанализированы научные исследования зарубежных учёных, нормы национального и зарубежного законодательства в сфере оценки, а также приведены примеры из правоприменительной практики в целях определения роли и значения института оценки в процессе доказывания экономических преступлений.

Ключевые слова: экономическая безопасность, оценка, экономические преступления, бюджет

FUNDAMENTALS FOR USING EVALUATION SERVICES DURING THE INVESTIGATION OF ECONOMIC CRIMES

Rakhimova Ulzana Khamidullaevna,
Acting Associate Professor of the Department of Criminal Procedure Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article highlights the legal and practical basis for using appraisal services during the preliminary investigation of this category of crimes in connection

with the increasing number of economic crimes in the Republic of Uzbekistan. In particular, in the process of investigating crimes in the sphere of economics and entrepreneurship, such as embezzlement or misappropriation of state property, violation of customs legislation, tax evasion, illegal trade in tobacco and alcohol products, illegal drug trafficking, as well as the legalization of proceeds from criminal activity, in order to determine the real value of property used in the commission of a crime and proceeds obtained as a result of a crime, the issues of conducting an appraisal and recognizing an appraisal report as evidence in a criminal case were analyzed. The importance of the assessment institute in ensuring budget security, taking into account the amount of financial damage caused by economic crimes, is substantiated. In this regard, the need to pay special and deep attention to the institution of assessment in the system of evidence during the preliminary investigation of these crimes was emphasized. The article also analyzes the scientific research of foreign scientists in order to determine the role and importance of the assessment institute in the process of proving economic crimes and the norms of national and foreign legislation in the field of assessment and also provides examples of cases encountered in law enforcement practice.

Keyword: *economic security, valuation, economic crimes, budget*

Kirish

2017-yildan boshlab bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan izchil va keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlar mamlakatimiz fuqarolari uchun tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishda keng imkoniyatlar yaratib berishi bilan izohlanadi. Natijada bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari soni jadal sur'atlarda ortib bormoqda hamda ularning faoliyati natijasida shakllanayotgan daromadlardan undirilayotgan soliq va boj to'lovlari davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini tashkil etmoqda. Shakllangan davlat byudjeti davlat siyosatini amalga oshirish va uni moliyaviy jihatdan ta'minlash maqsadida har yili turli yo'nalishlarga taqsimlanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining moliyaviy asosi bo'lib xizmat qiladi. Biroq Prezidentimiz tomonidan fuqarolar uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yaratilgan qulay sharoitlarga qaramasdan, ayrim shaxslar mazkur imkoniyatlardan jinoiy maqsadlarda foydalanib, oson va noqonuniy daromad topishga intilayotganini ham kuzatish mumkin. Mazkur shaxslarning jinoiy faoliyati natijasida davlat byudjetiga yetkazilayotgan moddiy zarar miqdorini inobatga olgan holda, bunday harakatlarni mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida baholash mumkin. Kriminogen vaziyatni tahlil qilish natijalariga ko'ra, 2019–2023-yillar oralig'ida respublikamizda qayd etilgan jinoyatlar soni 2,3 baravarga oshgan bo'lib, eng ko'p qayd etilgan jinoyatlar iqtisodiyot sohasiga to'g'ri kelgan va ularning ulushi 43,8 foizni tashkil etgan (UZSTAT, 2023). Ushbu jinoyatlar oqibatida yetkazilgan iqtisodiy zarar miqdori ko'pincha bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan ortiq summani tashkil etgani aniqlangan.



Davlat byudjetiga bevosita zarar yetkazuvchi va unga tahdid soluvchi iqtisodiy jinoyatlar turkumiga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-, 182-, 184-, 186¹-, 186³- hamda 243-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Mazkur jinoyatlar yurtimizda xufiyona iqtisodiyotning vujudga kelishi va kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. 2024-yil 16-yanvar kuni makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev yashirin iqtisodiyot adolatli raqobat muhitiga va halol tadbirkorlar faoliyatiga jiddiy to'siq bo'layotganini ta'kidlab, ushbu salbiy holatlarni bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish zarurligini qayd etdi (Mirziyoyev, 2024).

Yuqorida ko'rsatilgan iqtisodiy jinoyatlar turkumi bo'yicha dastlabki tergovni olib borish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, prokuratura hamda Davlat xavfsizlik xizmati tergov bo'linmalari vakolatiga kiradi va ular tomonidan tegishli tergov harakatlari amalga oshiriladi. Mazkur jinoyatlarni isbotlashga qaratilgan dalillarni to'plash jarayonida tergov organlari Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tergov harakatlaridan, xususan, hujjatli taftish o'tkazish, tovarshunoslik va bojxona ekspertizalarini tayinlash, shuningdek, boshqa protsessual choralar orqali dastlabki tergovni amalga oshiradi.

Iqtisodiy jinoyatlar murakkab va ko'p bosqichli sxemalar asosida, pinhona tarzda sodir etilib, ularni dalillash jarayoni maxsus bilimlarni talab qiladi. Shu sababli tergov va sud-ekspertiza xodimlari yetarli darajadagi iqtisodiy bilim va malakaga ega bo'lishi lozim. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi orqali daromad va mol-mulkni yashirish, hisobotlarda ro'yxatdagi va haqiqiy ko'rsatkichlarni buzib ko'rsatish, xo'jalik (iqtisodiy) operatsiyalarini moliyalashtirish va kreditlash qoidalarini buzish yo'li bilan amalga oshirilgan yashirin o'g'irliklarni fosh etishda iqtisodiy bilimlar majmuasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy sohadagi jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida yuzaga keladigan va kompleks iqtisodiy ekspertizalar yordamida hal etiladigan masalalar qatoriga birlashma va korxonalarning davlat topshiriqlarini bajarishda yo'l qo'ygan kamchiliklarini aniqlash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni asossiz yoki to'liqsiz hisobda aks ettirish holatlarini fosh etish, shuningdek, ishlab chiqarishdagi buzilishlar oqibatida yetkazilgan zararni aniqlash masalalari kiradi (Bazarova & Astanov, 2020).

Mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan iqtisodiy jinoyatlar yuzasidan jinoyat ishlari yurituv jarayonida baholash institutidan foydalanishning huquqiy asoslari, amaliy afzalliklari va muhim ahamiyati yoritiladi. Jumladan, iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda baholash xizmatlaridan foydalanish nafaqat yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash, balki ayrim hollarda baholash hisobotining jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, uni dalil sifatida e'tirof etish hamda sud tomonidan adolatli va asosli hukm chiqarilishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi asoslab beriladi.

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan izlanishlar davomida iqtisodiy jinoyatlarning bugungi kunda dolzarb masalaga aylangani sababli, ushbu jinoyatlarni tergov qilishda baholash xizmatlaridan foydalanishning asoslari va foydasini aniqlash maqsadida

xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, milliy hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi, shuningdek, tergov amaliyoti tahlil qilindi va mazkur natijaga erishildi.

Asosiy qism

Yurtimizda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan tezkor-tadbirlar natijasida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish yo'lida ko'plab jinoyatlarning oldi olinmoqda. Mazkur tezkor-tadbirlar natijasida noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan, ya'ni kiritilgan, aksiz markasi mavjud bo'lmagan, raqamli markirovkalanmagan, kontrafakt, noqonuniy ishlab chiqarilgan hamda sotuvga yaroqsiz bo'lgan mahsulotlar savdosi bilan shug'ullanishda gumon qilingan shaxslar aniqlanib, protsessual tartibda ushlangan. Shuningdek, ular tomonidan sotuvga qo'yilgan mahsulotlar ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilmoqda.

Mazkur huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan axborot-kommunikatsiya vositalarida yoritilgan quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Bosh prokuratura huzuridagi Departamentning Olmazor tumani bo'limi va IIBB xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbirda "R" MChJ rahbari G'J. "Jiydali" MFY hududidagi savdo do'konida 25 turdagi 3 407 quti aksiz markasiz va 293 quti elektron tamaki mahsulotlarini sotuvga qo'yganligi aniqlanib, ushbu mahsulotlar ashyoviy dalil sifatida olingan (Department for combating economic crimes under the general prosecutor's office of the republic of Uzbekistan, 2025).

"Yallama" chegara bojxona postida yurtimizga kirib kelgan yuk avtotransport vositasi bojxona nazoratidan o'tkazildi. Bojxona ko'rigi vaqtida yuk kuzatuv hujjatlarida ko'rsatilgan va og'zaki so'rovda ma'lum qilinmagan, transport vositasining yukxonasida joylashtirilgan 1291 dona dori vositalari aniqlandi (Tashkent Regional Customs Department, 2025).

Bundan tashqari, davlat organlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida tovar narxlarining asossiz ravishda oshirilgan yoki kamaytirilgan holda ko'rsatilishi bilan bog'liq holatlar ham uchraydi. Bunday holatlar bo'yicha o'tkazilgan taftish tekshiruvlari natijalariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasi bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilib, ular yuzasidan dastlabki tergov harakatlari olib boriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarni aniqlash va dalillash jarayonida baholash xizmatlariga ehtiyoj mavjudligi inobatga olinib, baholash xizmatlaridan foydalanish hamda baholash hisobotini jinoyat ishida dalil tariqasida e'tirof etishning huquqiy va amaliy asoslari quyida bayon etiladi.

Mazkur jinoiy holatlarda jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni aniqlash maqsadida tovarlarning o'rtacha bozor narxini belgilash tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov jarayonida jinoyat ishini qo'zg'atish hamda aybni isbotlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash faoliyati yurtimizda "Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tartibga solinadi. Mazkur qonunning 3-moddasiga ko'ra, baholash faoliyati baholovchi tashkilot tomonidan baholash obyekti qiyamatini aniqlashga qaratilgan faoliyat sifatida belgilangan.

Baholash faoliyatining asosiy maqsadi baholanuvchi obyektning qiyamatini aniqlashdan iborat bo'lib, uning natijasida baholangan obyektga nisbatan bozor



qiymati yoki bozordan farqlanuvchi qiymat belgilanadi hamda baholash pul ifodasida amalga oshiriladi. Baholash obyektining bozor qiymati uning eng ehtimoliy narxi bo'lib, ushbu narx baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitim taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda, o'z manfaatlarini ko'zlab, oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qilgan vaziyatda, bitim narxiga ta'sir etuvchi favqulodda holatlar, jumladan, taraflardan birining bitim tuzishga majburiyati mavjud bo'lmagan sharoitda shakllanadi.

Qonunning 5-moddasida baholash obyektlari jumlasiga alohida moddiy obyektlar (ashyolar), shaxs mol-mulkini tashkil etuvchi ashyolar majmui, shu jumladan, muayyan turdagi (ko'char yoki ko'chmas) mol-mulk, mol-mulkka yoki uning tarkibidagi ayrim ashyolarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, talab qilish huquqlari, majburiyatlar (qarzlari), ishlar, xizmatlar, axborot, intellektual mulk obyektlari hamda qonunchilikka muvofiq fuqarolik muomalasida bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa fuqarolik huquqlari obyektlari kiritilgan. Mazkur obyektlarning barchasi iqtisodiy jinoyat sodir etish jarayonida qo'llanishi, shuningdek, jinoyat sodir etilishi natijasida jinoyatchi tomonidan foyda tariqasida egallanishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy jinoyatlarni dalillash va yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashda baholash xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Keyingi o'rinlarda Jinoyat kodeksining 167-, 182-, 184-, 186¹-, 186³- hamda 243-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni dalillash jarayonida baholash o'tkazish uchun asoslar bayon etiladi:

O'zganing mulkini rastrata va o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati milliy xavfsizligimizga tahdid soluvchi jinoyatlardan biri bo'lib, mazkur jinoyatning byudjet tizimiga ta'siri bevosita va salmoqlidir. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, "A" nomli davlat tashkiloti tomonidan tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish jarayonida tadbirkorlik subyekti bilan to'g'ridan to'g'ri oldi-sotdi shartnomasini tuzish yoki "elektron-auksion" tizimida tovarlarni eng past narxda taklif qilgan tadbirkor bilan shartnoma tuzilib, keyinchalik mazkur shartnomaga o'zgartirishlar kiritish orqali (masalan, qo'shimcha tovar-moddiy boyliklar sotib olish, subpudratchilar bilan shartnoma tuzish) shartnomada xarid qilinayotgan narsalarning bahosi o'rtacha bozor narxiga nisbatan oshirilgan holda ko'rsatiladi. Natijada mazkur shartnoma obyektining xarid qilinishi oqibatida byudjet mablag'laridan ortiqcha mablag' sarflanishi alomatlari vujudga keladi.

Bunday jinoyatlarni tergov qilish davomida baholash xizmatlaridan foydalanilib, davlat organi tomonidan sotib olingan materiallarning shartnomalarda ko'rsatilgan summasi xuddi shunday rusumdagi va turdagi materiallarning bozordagi narxi hamda xususiyatlari bilan taqqoslanadi. Natijada byudjetdan ortiqcha mablag'lar sarflanganligi dalillanishiga imkoniyat yaratiladi. Amaliyotdan misol keltiradigan bo'lsak, yaqinda davlat organi mansabdor shaxsi – sobiq suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari tomonidan rasmiy beparvolik namoyon etilishi oqibatida nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bilan bog'liq yirik loyihaning qiymati 95,4 million dollarga oshirilgan. Bu esa byudjetdan 3,7 milliard so'm (296 ming dollar) miqdorida asossiz mablag' sarflanishiga olib kelgan holat sifatida qayd etilgan (FERGANA.NEWS, 2024).

Davlatimiz byudjet mablag'lari asosan soliq va boj tushumlaridan shakllanadi. Mazkur bojxona tushumlari tadbirkorlar tomonidan respublikamiz hududiga bojxona-chegara postlari orqali olib kiriladigan tovarlardan undiriladi. Biroq bojxona ko'rigini chetlab o'tish orqali boj to'lamaslikni o'ziga maqsad qilib, jinoiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar ham mavjud. Ushbu shaxslar o'z jinoiy rejasini bojxona-chegara hududidan ayrim tovarlarni yashirgan holda olib o'tish va bojxona yuk deklaratsiyasida aks ettirmaslik yo'li bilan amalga oshiradi. Bunday tovarlarga nisbatan baholash o'tkazilganda, to'lanishi lozim bo'lgan boj summasi aniqlanadi. Mazkur amaliyot deyarli barcha bojxona qonunchiligini buzish bilan bog'liq qonunbuzarliklar va jinoyatlarni tergov qilish jarayonida qo'llanadi.

Jinoyat kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish xavfli jinoyatlardan biri bo'lib, bunda tajovuz iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga yo'naltirilgan. Davlatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish uyushgan-korrupsiyalashgan, aldash-g'arazli va ko'pchilik hollarda davlatlararo jinoyatchilikning barqaror belgilariga ega bo'lib, sifat jihatidan rivojlanish tendensiyasiga ega. Ushbu jinoyat sohasidagi juda katta daromadlar "xufiyona iqtisodiyot" asoslaridan biri hisoblanadi (Akhmad, 2021).

Tamaki va alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari orasida ayrimlari bojxona ko'rigini chetlab o'tish yo'li bilan olib kirilgan, aksiz markasi va kirim hujjatlari mavjud bo'lmagan tamaki va alkogol mahsulotlarini naqd pulga sotib olib, chakana savdoni amalga oshiradi. Mazkur iqtisodiy jinoiy faoliyat soliq va bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlashni o'z ichiga olib, byudjetga juda katta zarar yetkazadi. Ushbu jinoyat bo'yicha olib boriladigan dastlabki tergov davomida ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan tamaki va alkogol mahsulotlariga nisbatan baholash o'tkazilib, mazkur tovarlarning umumiy qiymati aniqlanadi. Bundan tashqari, tergov davomida hujjatli taftish tayinlash orqali, taftish dalolatnomasiga asosan yuqorida ko'rsatilgan ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan tovarlar summasidan byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boj to'lovlari hisoblanadi. Bu esa jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi shaxslarning aybini JKning 182- va (yoki) 184-moddalari bilan to'ldirishga hamda byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boj mablag'larini undirishga asos bo'ladi.

Farmatsevtika bozoriga to'xtaladigan bo'lsak, dori vositalari yoki tibbiyot buyumlarining chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan dori vositalari raqamli markirovkadan o'tkazilmasdan, garchand mazkur tartib majburiy hisoblanmasa ham, ayrimlari bojxona ko'rigini chetlab o'tish yo'li bilan olib kirilgan dori vositalarining savdosini amalga oshirib, soliq va boj majburiyatlaridan bo'yin tovlab, xufiyona iqtisodiyot rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Mazkur holatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan taqdirda, tadbirkorlik subyektiga tegishli bo'lgan barcha dori vositalari ashyoviy dalil tariqasida olib qo'yilib, baholash o'tkazish yordamida mazkur dori vositalarining umumiy qiymati aniqlanadi va Jinoyat kodeksining 186³-moddasining tegishli qismlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilishiga asos bo'ladi. Shuningdek, mazkur jinoyat



ishlari doirasida hujjatli taftish tayinlanib, taftish dalolatnomasiga asosan ushbu dori vositalar summasidan kelib chiqqan, ya'ni to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boj miqdori aniqlanadi. Natijada, jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi shaxslarning aybi JKning 182- va (yoki) 184-moddalari bilan to'ldiriladi va byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boj mablag'lari undiriladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati turli xil tipologiyalarga ega bo'lib, tergov jarayonida isbotlanishi qiyin bo'lgan iqtisodiy jinoyatlar sirasiga kiradi. Masalan, davlat tashkiloti tomonidan "A" nomli tadbirkorlik subyekti bilan tovar-moddiy boyliklarni yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuziladi va keyinchalik mazkur "A" tadbirkorlik subyekti bank hisob-raqamiga oldindan juda katta miqdordagi pul mablag'lari o'tkazib beriladi. Shundan so'ng "A" tadbirkorlik subyekti "B" nomli chet ellik tadbirkorlik subyekti bilan soxta yoki tovarsiz shartnoma tuzib, "B" tadbirkorlik subyektining chet eldagi bank hisob-raqamiga pul mablag'larini o'tkazadi. Natijada davlat tashkilotiga shartnoma shartlariga mos kelmaydigan sifatsiz yoki boshqa turdagi mahsulotlar yetkazib beriladi. Ushbu holatda JKning 167- va 243-moddalarida nazarda tutilgan o'zganing mulkini rastrata va o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilish hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari sodir etiladi.

Mazkur jinoyatni dalillash jarayonida yetkazib berilgan tovarlarning sotib olingan vaqtdagi narxi va xususiyatlari baholash hamda tovarshunoslik ekspertizalarini tayinlash orqali aniqlanadi va ular o'rtacha bozor narxlari hamda shartnomada ko'rsatilgan tovarlarning xususiyatlari bilan taqqoslanadi. Bu esa mazkur jinoyatni isbotlashga imkoniyat yaratadi.

Butunjahon FATF tashkilotining "Savdo operatsiyalari orqali pul yuvish" nomli hisobotida har qanday pul yuvish sxemasining asosiy maqsadi savdo operatsiyalarini suiste'mol qilish orqali noqonuniy pul mablag'larini ko'chirish ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, jinoyatchilar tomonidan soliq, bojxona va boshqa huquqbuzarliklarni chetlab o'tish maqsadida hisob-fakturalarni soxtalashtirish, tovar xususiyatlarini o'zgartirish kabi boshqa turdagi noqonuniy faoliyatlar amalga oshirilishi ta'kidlangan. Hisobotda "savdo operatsiyalari orqali pul yuvish"ning asosiy maqsadi tovarlarni ko'chirish emas, balki noqonuniy pul mablag'larini ko'chirish orqali ularga qonuniy tus berish ekani alohida ko'rsatib o'tilgan (FATF, 2020, December).

Olim Nikiforov B.S.ning fikriga ko'ra, biror buyum uchun yuqori narx belgilanishi uning asl qiymati bilan emas, balki pulni o'tkazish usuli sifatida namoyon bo'ladi va bu narxdagi aldov hisoblanadi. Chunki "subyekt buyum uchun aslida bunga loyiq bo'lmagan narxni belgilaydi". Olim ushbu holatni fuqarolar o'rtasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishishda predmet narxini belgilash jarayonida aldov qo'llanishi mumkinligi, ya'ni firibgarlik (jinoiy) alomatlari uchrab turishi bilan izohlaydi.

M. Urazaliyev o'z ilmiy maqolasida, boshlang'ich narxni kamaytirish maqsadida o'tkazilgan kim oshdi savdolarini chetlab o'tish, shuningdek, davlat xaridlari qonunchiligi talablariga rioya qilmasdan tender o'tkazish o'rniga oshirilgan narxlar bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish orqali ortiqcha byudjet mablag'larini sarflash va bunga

vakolati bo'lmagan tashkilotlar tomonidan mazkur holatlar sodir etilganligini, bir qator tizimli buzilishlar holatlari aniqlanganligini qayd etgan (Urazaliyev, 2023).

Xorijiy olimlar J.K. Oyadonghan va S. Ogoun o'z ilmiy ishlarida, o'zlashtirishning davlat sektoridagi firibgarlikning eng yuqori turi hisoblanishini, odamlar ataylab konvertatsiya qilishini, qo'rquv yoki vijdon buzilishsiz jamoat fondi mablag'larini shaxsiy foydalanish uchun ishlatishini, shuningdek, mazkur firibgarliklarning turiga shartnoma narxini oshirish ham kirishini ta'kidlagan (Oyadonghan & Ogoun, 2022).

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning ilmiy ishlarida, davlat mulkiga qaratilgan jinoyatlarni sodir etishda shartnomada narxlarni oshirib ko'rsatish jinoyat sodir etishning bir uslubi ekanligi ko'rsatilib, fikrlar bildirilgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha jinoyatlarni sodir etish jarayonida bevosita moddiy boyliklar qo'llanadi va mazkur moddiy boyliklarning bahosi qimmatlashtirilgan yoki arzonlashtirilgan holatlar kuzatilishi mumkin.

Baholash xizmati nafaqat iqtisodiy jinoyat ishini tergov qilishda, balki byudjet mablag'larining talon-taroj qilinishining oldini olishda ham muhimdir. Masalan, davlat buyurtmasiga asosan qurilayotgan qurilish obyekti, yo'l yoki boshqa infrastrukturallarning qurilish jarayonida xarid qilingan qurilish materiallarining asl bahosi, sarflangan pul mablag'lari qurilish natijalariga mos kelishi, qurilish xizmatlari uchun ishlatilgan byudjet mablag'lari qurilish jarayonida ekspert tomonidan baholanishi hamda taftish o'tkazish orqali mazkur ishlarda boshqa shubhali holatlar aniqlanishi mumkin.

Baholash sohasining O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual qonunchiligida ko'rsatilgan normalariga nazar solsak, baholash sohasi faqatgina jinoyat ishi doirasida mol-mulkni xatlash chog'ida qo'llanishi aks ettirilgan. Ya'ni JPKning 293-moddasida xatlanayotgan mol-mulk surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan uning eskirish darajasini e'tiborga olib, baholash paytida mavjud bo'lgan bozor narxida baholanishi, zarur hollarda baholash mutaxassisi ishtirokida yoki baholovchi tashkilot tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur normada baholash xizmati faqatgina mol-mulkni xatlash chog'ida foydalanilishi ko'rsatilgan, lekin ushbu xizmatlardan jinoyatni dalillash maqsadida ham qo'llash mumkin.

Xorijiy olimlar L. Chuantun va L. Kondrashovanning mazkur sohada olib borgan ilmiy ishlarida, baholash sohasining rivojlanishini tartibga soluvchi huquqiy normalarning yo'qligi, shuningdek, ushbu sohani turli davlat organlari tomonidan tartibga solish, baholash faoliyatining subyektiv segmentatsiyasi, baholash faoliyatini amalga oshirishning turli tarmoq standartlari va normalarining birgalikda mavjudligi, bozor segmentlari ustidan zaif nazorat tufayli davlat mulkini tasarruf etish, yerlarni ekspropriatsiya qilish, davlat mulkini yo'qotish, bitimlarning nohaq belgilangan narxlari kabi muammolar mavjud bo'lib, ular tomonlarning huquqiy javobgarligi noaniq bo'lsa, mulk egalari zarar yetkazilishiga olib kelganligini ta'kidlab o'tishgan (Chuan'tun & Kondrashova, 2005).

O'tkazilgan mazkur tadqiqotning natijasida iqtisodiy jinoyatlarni sodir etish jarayonida, ya'ni soliq majburiyatlaridan bo'yin tovlash, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan boshqa shaxsning mulkini talon-taroj qilish, bojxona qonunchiligini



buzish, noqonuniy tamaki va alkogol savdosi, shuningdek, jinoiy faoliyatdan topilgan daromadlarni legallashtirish kabi jinoyatlar sodir etilishida bevosita moddiy boyliklar qo'llanishi hamda mazkur boyliklar fuqarolik munosabatlari, ya'ni oldi-sotdi, ijara, sovg'a va boshqa munosabatlarga kirishish orqali tovarlarning bahosi bozor narxiga qaraganda kamaytirilib yoki oshirilib o'zgartirilishi mumkinligi muhokama qilindi.

Rossiyalik olim M.M. Yusupov o'z ilmiy ishlarida fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlari obyektlari, shubhasiz, qiymat toifasi bilan bog'liq ekanligini, ular fuqarolik-huquqiy bitimlarning predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkinligini, juda aniq moddiy qiymatga ega ekanligini, ya'ni mulk bilan bir qatorda nazariy jihatdan jinoiy egalik predmeti bo'lishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan (Yusupov, 2010).

Iqtisodiy jinoyatlar yuzasidan o'tkaziladigan dastlabki tergov davomida ayblanuvchilarning aybini isbotlash maqsadida baholash xizmatlaridan foydalanish, shuningdek, baholash hisobotlarini jinoyat ishida ayrim hollarda dalil sifatida e'tirof etish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Mazkur hollarda tezkor-tadbirda olib qo'yilgan ashyoviy dalillarning qiymatini aniqlash, aksiz markasi bo'lmagan alkogol-tamaki mahsulotlari, raqamli markirovkalanmagan hamda kirim va bojxona hujjatlari bo'lmagan tibbiyot mahsulotlari qiymatini belgilash, mazkur mahsulotlardan to'lanishi kerak bo'lgan boj va soliq to'lovlari qiymatini aniqlash, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilishda yoki jinoiy daromadlarni legallashtirishda amalga oshiriladigan shubhali moliyaviy operatsiyalar yoki fuqarolik bitimlari baholash o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Baholash natijalari faqatgina dalillash va aniqlashda emas, balki sodir etilgan jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning miqdorini aniqlashda ham qo'llanadi. Mazkur zararning miqdori orqali Jinoyat kodeksida belgilangan moddalarning kerakli qismi bilan jinoyat to'g'ri kvalifikatsiyalanadi. Jinoyat kodeksida zararning miqdori ancha, ko'p bo'lmagan, ko'p va juda ko'p miqdorlarga bo'lingan va mazkur miqdorlarga qarab jinoyat ishini kvalifikatsiyalash hamda miqdorga qarab jazo tayinlash amalga oshiriladi. Yetkazilgan zararning aniq miqdorini aniqlash uchun baholash hisobotlari asosida tergovchi va sudya tomonidan to'g'ri kvalifikatsiyalangan jinoyat ishi sudlanuvchining adolatli jazo olishiga bevosita ta'sir qiladi.

Xulosa

Maqola muallifi tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasida, iqtisodiy jinoyatlar davlat byudjetiga zarar yetkazishini inobatga olib, mazkur jinoyatlar bo'yicha olib boriladigan dastlabki tergov ishlari samarali olib borilishiga ilmiy hissa qo'shish maqsadida baholash instituti chuqur o'rganildi. Davlat mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish, bojxona qonunchiligini buzish, soliq majburiyatlaridan bo'yin tovlash, noqonuniy tamaki va alkogol savdosi, noqonuniy dori mahsulotlari savdosi hamda jinoiy faoliyatdan topilgan daromadlarni legallashtirish kabi jinoyatlarni sodir etishda bevosita moddiy boyliklar jinoyat predmeti sifatida ishlatilishi yoki jinoyat oqibatida topilgan daromad deb hisoblanishi mumkinligi ko'rib chiqildi.

Baholash xizmatlari faqat jinoyat sodir etish oqibatida yetkazilgan zararni aniqlash uchun emas, balki iqtisodiy jinoyatlar yuzasidan tergovchi tomonidan

amalgam oshiriladigan dastlabki tergov jarayonida baholash hisobotlarini dalil sifatida qo'llashda ham muhimdir. Ya'ni yuqorida ko'rsatilgan jinoyatlarni dalillash va ayblanuvchining aybini tasdiqlash hamda sudya tomonidan iqtisodiy jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining baholash natijasida aniqlangan zarar miqdori Jinoyat kodeksi moddalaridagi tegishli qismlarga to'g'ri kelgan holda sudlanuvchiga nisbatan adolatli hukm chiqarilishiga asos bo'lishi mumkinligi keltirib o'tildi.

REFERENCES

1. Akhmad, Z. (2021). Bojxona qonunchiligini buzish jinoyatlarini tergov qilishning protsessual va huquqiy asoslari [Procedural and legal bases for investigating crimes of violation of customs legislation]. *Science LLC*.
2. Bazarova, D., & Astanov, I. R. (2020). *Kriminalistika va ekspertiza [Forensic science and expertise]*.
3. Chuan'tun, L., & Kondrashova, L. (2005). Kitay: Novye podkhody k upravleniyu gosudarstvennoy sobstvennostyu [China: New Approaches to Managing State Property]. *Problemy teorii i praktiki upravleniya [Problems of management theory and practice]*, 1, (18), 26.
4. Economy and Business. (2024). Teni na tabachnom rynke: kakova situatsiya s nezakonnoy trgovley tabakom v Uzbekistane? [Shadows in the Tobacco Market: What's the State of Illegal Tobacco Trade in Uzbekistan?]. <https://nuz.uz/2024/11/29/ten-na-tabachnom-rynke-kakova-situacziya-s-nezakonnym-oborotom-tabachnyh-izdelij-v-uzbekistane/>
5. FATF. (2020, December). Otmyvanie deneg v ramkakh trgovnykh operatsiy [Trade-related money laundering] (p. 13). https://eurasiangroup.org/files/uploads/files/other_docs/FATF%20docs/Trade-Based-Money-Laundering-Trends-and-Developments_rus.pdf
6. FERGANA.NEWS. (2024). Za khishcheniya i khalatnost byvshemu zamglavy Minselkhoza Uzbekistana ogranichili svobodu [The former deputy head of the Ministry of Agriculture of Uzbekistan has had his freedom restricted for theft and negligence]. <https://fergana.agency/news/135187/>
7. Mirziyoyev, Sh. (2024). Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi [Priority tasks for ensuring macroeconomic stability and economic development were discussed]. <http://president.uz/oz/lists/view/6971>
8. Nikiforov, B. S. (1952). *Borba s moshennicheskimi posyagatel'stvami na sotsialisticheskuyu i chastnuyu sobstvennost v ramkakh sovetskogo ugolovnogo prava [Combating fraudulent encroachments on socialist and private property within the framework of Soviet criminal law]* (p. 128). Moscow.
9. Oyadonghan, J. K., & Ogoun, S. (2022, August). Financial Misappropriation in the Nigerian Public Sector: A Determination of the Role of the Internal Auditor. *International Journal of Innovation and Economic Development*, 8, 97–108.
10. Department for combating economic crimes under the general prosecutor's office of the republic of Uzbekistan. (2025). Sale of unbranded tobacco



products exposed in Tashkent. https://prodepartament.uz/uz/news/breaking_news/687a3dd1041234000186a02b

11. Tashkent Regional Customs Department. (2025). The July 2025 issue of the magazine dedicated to the activities of the Global Trade Support Program of the World Customs Organization and the Swiss Economic Cooperation Organization extensively covered Uzbekistan's active participation in this Program. <https://t.me/tvbojxona/21318>

12. Urazaliev, M. (2023). Davlat xaridlarida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari [Issues of preventing violations in public procurement]. *Jamiyat va innovatsiyalar [Society and innovation]*.

13. UZSTAT. (2023). Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan [Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan]. https://stat.uz/ru/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=425&id=3142&Itemid=1000000000000

14. Yusupov, M. M. (2010). O nekotorykh voprosakh otsenki predmeta legalizatsii (otmyvaniya) denezhnykh sredstv ili inogo imushchestva, priobretennykh drugimi litsami prestupnym putem [On some issues of assessing the subject of legalization (laundering) of funds or other property acquired by other persons through criminal means]. *Vestnik Akademii ekonomicheskoy bezopasnosti MVD Rossii [Bulletin of the Academy of Economic Security of the Ministry of Internal Affairs of Russia]*, 10, 138–140.

Kelib tushgan / Получено / Received: 25.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 20.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 22.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.ccj.5.4./HPFW7733
UDC: 343.232(045)(575.1)

AYBLOV TUSHUNCHASINING DA'VO VA JINOIY TA'QIB TUSHUNCHALARI BILAN O'ZARO NISBATI

Uteniyazov Keulimjay Kuanishbayevich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens nazorat
tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i
ORCID: 0009-0003-3461-3120
e-mail: u_keulimjay@karsu.uz

Annotatsiya. Maqolada jinoyat-protsessual huquq nazariyasidagi “ayblov” tushunchasining “da’vo” va “jinoiy ta’qib” tushunchalari bilan o’zaro nisbati, ularning huquqiy tabiati va amaliyotdagi ifodasi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning predmeti ayblov institutining mohiyati va uning da’vo, jinoiy ta’qib bilan bog’liq jihatlari hisoblanib, maqsad ushbu kategoriyalarning chegaralarini belgilash va ularning jinoyat-protsessual huquqdagi o’rnini aniqlashdan iboratdir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, milliy qonunchilikda “da’vo” yoki “jinoiy ta’qib” atamalari qo’llanilmasdan, uning o’rnida “ayblov” tushunchasi ishlatilishi huquqiy noaniqliklarga va ayblov mazmunining sun’iy ravishda kengayishiga sabab bo’lmoqda. Tadqiqot natijalari ayblov institutining jinoiy ta’qib bilan uzviy bog’liqligini, shu bilan birga, ularning mustaqil protsessual kategoriyalar sifatida farqlanishi zarurligini, shuningdek, ayrim hollarda ayblov fuqarolik protsessidagi da’vo instituti bilan o’xshashlik kasb etsa-da, ommaviy va xususiy-ommaviy ayblov turlarida davlat manfaatlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. Olingan ilmiy natijalar jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, ayblov va jinoiy ta’qib institutlari o’rtasidagi huquqiy chegaralarni aniqlashtirish hamda shaxsning protsessual huquqlarini kafolatlash amaliyotida qo’llanilishi mumkin.

Kalit so’zlar: jinoyat-protsessual huquq, jinoiy ta’qib, ayblov, protsessual kafolat, xususiy ayblov, ommaviy ayblov, da’vo

СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЯ ОБВИНЕНИЯ С ПОНЯТИЯМИ ИСКА И УГОЛОВНОГО ПРЕСЛЕДОВАНИЯ

Утениязов Кеулимжай Куанышбаевич,
начальник отдела управления системой комплаенс-контроля
по противодействию коррупции
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

Аннотация. В статье с научно-теоретических и практических позиций анализируется соотношение понятия «обвинение» с понятиями «иск» и «уголовное преследование», их правовая природа в теории уголовно-процессуального права и проявление в правоприменительной практике. Предметом исследования является сущность института обвинения и его взаимосвязь с иском и уголовным преследованием, а целью – определение границ данных категорий и выявление их места в системе уголовно-процессуального права. Актуальность темы обусловлена тем, что в национальном законодательстве термины «иск» и «уголовное преследование» не используются, а вместо них применяется понятие «обвинение», что приводит к правовой неопределённости и искусственному расширению содержания обвинения. Результаты исследования показывают, что институт обвинения находится в тесной взаимосвязи с уголовным преследованием, однако при этом они должны разграничиваться как самостоятельные процессуальные категории. Кроме того, установлено, что хотя в отдельных случаях обвинение проявляет сходство с институтом иска в гражданском процессе, в делах публичного и частно-публичного обвинения приоритетное значение имеют интересы государства. Полученные научные выводы могут быть использованы при совершенствовании уголовно-процессуального законодательства, уточнении правовых границ между институтами обвинения и уголовного преследования, а также в практике обеспечения процессуальных прав личности.

Ключевые слова: уголовно-процессуальное право, уголовное преследование, обвинение, процессуальные гарантии, частное обвинение, публичное обвинение, иск

THE CORRELATION BETWEEN THE CONCEPT OF ACCUSATION AND THE CONCEPTS OF CLAIM AND CRIMINAL PROSECUTION

Uteniyazov Keulimjay Kuanishbayevich,
Head of the Department for the Management of
the Compliance Control System for Combating Corruption,
Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract. *The article analyzes from a scientific-theoretical and practical point of view the relationship between the concept of “accusatio” in the theory of criminal procedure law and the concepts of “claim” and “criminal prosecution” their legal nature, and their expression in practice. The subject of the research is the essence of the institution of prosecution and its aspects related to the claim, criminal prosecution, the purpose of which is to define the boundaries of these categories and determine their place in criminal procedure law. The relevance of the topic lies in the fact that the use of the concept of “accusatio” instead of the terms “clai” or “criminal prosecutio” in national legislation leads to legal ambiguities and an artificial expansion of the content of the accusation. The results of the study show that the institution of prosecution is inextricably linked with criminal prosecution, and at the same time, it is necessary to distinguish them as independent procedural categories, and in some cases, although the prosecution has similarities with the institution of a lawsuit in civil proceedings, the interests of the state are of paramount importance in public and private-public prosecution. The obtained scientific results can be used in the practice of improving criminal procedure legislation, clarifying the legal boundaries between the institutions of prosecution and criminal prosecution, as well as guaranteeing the procedural rights of the individual.*

Keywords: *criminal procedure law, criminal prosecution, accusation, procedural guarantee, private prosecution, public prosecution, claim*

Kirish

Ayblov instituti jinoyat-protsessual huquqning asosiy va markaziy elementlaridan biri bo'lib, uning mohiyati shundaki, ayblov shaxsga nisbatan jinoyat sodir etganligi to'g'risida rasmiy ayb e'lon qilish orqali jinoyat protsessini yuritish uchun huquqiy asos yaratadi. Ayblovning mavjudligi sud hokimiyatining samarali faoliyatini ta'minlash, aybdor shaxsni qonuniy javobgarlikka tortish hamda uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning fundamental sharti sifatida ko'riladi.

Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida “ayblov”, “da'vo” va “jinoiy ta'qib” tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biroq ularning aniq nisbati to'g'risida yagona fikr mavjud emas (Kachalov, 2014). Ayrim olimlar ayblovni jinoiy ta'qibning tarkibiy qismi sifatida talqin qilsa (Pushkarev, 2017), boshqalar bu ikki kategoriyani mustaqil huquqiy institutlar deb hisoblaydilar (Barabash, 2005). XX asrning ikkinchi yarmigacha amalda bo'lgan sovet jinoyat-protsessual qonunchiligida “jinoiy ta'qib” tushunchasining “ayblov” bilan almashtirilishi bu masaladagi qarashlar turlicha shakllanishiga asos bo'lgan (Mukhitdinov, 2020; Saidov & Khayrulloev, 2008).

Amaliyotda esa jinoiy ta'qib nafaqat shaxsga nisbatan ayb e'lon qilish jarayonini, balki jinoyat sodir etilganligini aniqlash, gumon qilinuvchini topish, tergov harakatlarini amalga oshirish va aybdor shaxsni javobgarlikka tortish kabi keng qamrovli jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ayblov esa mazkur jarayonning keyingi



bosqichida yuzaga chiqib, shaxsga nisbatan rasmiy ayb qo'yish va uning jinoiy javobgarligini asoslash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, ayblov, da'vo va jinoiy ta'qib tushunchalarining huquqiy mohiyatini, ularning o'zaro nisbatini chuqur tahlil qilish jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish hamda shaxsning protsessual huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada mazkur tushunchalarning chegaralari, ularning huquqiy tabiati hamda ayblovga nisbatan "da'vo" sifatida yondashuv masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Shu bilan birga, amaldagi ilmiy manbalarda ayblov, da'vo va jinoiy ta'qib o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik faqat nazariy fikrlar bilan chegaralanib, ularning amaliy muammolari va huquqni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan muammoli holatlar yetarlicha hal etilmagan. Xususan, amaliyotda jinoiy ta'qibning qaysi bosqichdan boshlab vujudga kelishi, ayblovning jinoiy ta'qibdan mustaqilligi yoki unga qanchalik funksional jihatdan bog'liqligi, xususiy ayblovda "da'vo" elementlarining mazmuni va chegaralari kabi masalalarda bir xillik mavjud emas. Buning oqibatida tergov organlari, prokuratura va sudlar tomonidan turlicha yondashuvlar qo'llanilib, ayrim hollarda shaxsning protsessual huquqlari ta'minlanishida izchillik buzilmoqda.

Mazkur masalalarning yechilmasligi milliy jinoyat-protsessual qonunchilikda atamalar va institutlar o'rtasida funksional aniqlik yetishmasligiga olib kelmoqda. Jumladan, "ayb e'lon qilish" va "jinoiy ta'qibni amalga oshirish" tushunchalari ba'zan mazmunan bir-birini takrorlaydi, ba'zan esa mutlaqo farqli mazmunda qo'llaniladi. Xususiy ayblov ishlarida "da'vo" institutining protsessual tabiatini aniqlashga qaratilgan yagona mezonlar ishlab chiqilmagani esa ushbu ishlarni yuritishda umumiy qoidalarining bir xilda qo'llanilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun ayblov, da'vo va jinoiy ta'qibning o'zaro nisbatini faqat nazariy ta'riflar orqali emas, balki ularning huquqiy tabiatini, funksional vazifalarini va jinoyat protsessining turli bosqichlarida qanday namoyon bo'lishini tizimli tahlil qilish zarur. Muammoning yechimi sifatida mazkur maqolada: ushbu tushunchalarning aniq va amaliy mezonlar asosidagi chegaralarini belgilash; ularning o'zaro aloqadorligini zamonaviy jinoyat-protsessual huquqining modeli kontekstida qayta baholash; JPKdagi terminologik va konseptual nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar shakllantirish; jinoiy ta'qibning boshlanishi, davom etishi va tugashi jarayonlarida ayblov institutining o'rni va rolini aniqlashtirish kabi masalalar ilmiy muhokama markaziga chiqariladi. Ushbu yondashuv orqali maqolada nafaqat mavjud nazariy qarashlar qayta ko'rib chiqiladi, balki ayblov institutini takomillashtirishga xizmat qiladigan aniq huquqiy-amaliy yechimlar ham taklif etiladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida jinoyat-protsessual huquqda ayblov instituti hamda uning jinoiy ta'qib va da'vo bilan bog'liq huquqiy munosabatlari belgilandi. Tadqiqot predmeti esa ayblov, da'vo va jinoiy ta'qib tushunchalarining mazmuni, funksional vazifalari hamda ularning jinoyat protsessining turli bosqichlarida namoyon bo'lish shakllaridan iborat.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalari, milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, shuningdek, sobiq Ittifoq davri va zamonaviy xorijiy jinoyat-protsessual qonunchiligi materiallari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar ayblov institutining jinoiy ta'qib va da'vo bilan o'zaro aloqasini faqat terminologik emas, balki funksional va institutsional jihatdan baholash imkonini berdi.

Asosiy qism

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy jinoyat-protsessual qonunchilikda "ayblov" tushunchasining haddan tashqari keng talqin qilinishi jinoiy ta'qibning mustaqil bosqichlari va funksiyalarini aniqlash imkonini cheklamoqda. Natijada jinoiy ta'qibning boshlanishi, davom etishi va tugashi bilan bog'liq masalalarda yagona yondashuv shakllanmagan. Bu holat, ayniqsa, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining protsessual maqomini belgilashda hamda ularning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarida muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Rasmiy statistika ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga yuborilgan ishlarning muayyan qismida ayblovning o'zgartirilishi, to'ldirilishi yoki qisman tugatilishi holatlari kuzatilmoqda. Xususan, 2024-yilda prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha tergov jarayonida qonuniylikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan faoliyat natijalari e'tiborga loyiqdir. Hisobot yilida prokuratura organlari tomonidan bevosita 14 623 ta jinoyat ishi tergov qilinib, ular doirasida 13 589 nafar shaxsga nisbatan 8 950 ta jinoyat ishi sudlarga yuborilgan. Shu bilan birga, surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan tergov qilingan 78 543 nafar shaxsga oid 63 454 ta jinoyat ishi prokuror nazoratida ko'rib chiqilib, sud muhokamasiga taqdim etilgan. Tergov jarayonida prokurorlar tomonidan 2 684 ta noqonuniy protsessual qarorning bekor qilinishi hamda 56 601 ta yozma ko'rsatmaning berilishi jinoiy ta'qib va ayblov faoliyatining amaliy jihatdan murakkab va ko'p bosqichli ekanligini ko'rsatadi (*Open data of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan*).

Shu bilan birga, sud amaliyoti ma'lumotlari ayblovni qisman tugatish institutining huquqiy ahamiyati va amaliy samaradorligini ham tasdiqlaydi. Jumladan, jinoyat sudlarida 2022-yilda 13 824 nafar, 2023-yilda 13 522 nafar va 2024-yilda 14 991 nafar shaxsga nisbatan tergov organlari tomonidan asossiz yoki noto'g'ri malakalangan normalar ayblovdan chiqarib tashlangan yoki ularning yuridik tavsifi qayta ko'rib chiqilib, o'zgartirilgan. Bu holat ayblovning dastlabki bosqichda shakllantirilishi jinoiy ta'qibning real hajmi va mazmuniga to'liq mos kelmasligini ko'rsatadi (*Information message on criminal cases*). Mazkur statistik ko'rsatkichlar tergov bosqichida ayblovning shakllantirilishi bilan jinoiy ta'qibning hajmi o'rtasida yetarli darajada izchillik ta'minlanmaganidan dalolat beradi hamda jinoiy ta'qib va ayblov tushunchalarining normativ jihatdan aniq ajratilmagani amaliyotda protsessual qarorlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoiy ta'qib ayblovdan oldingi va undan mustaqil bo'lgan



faoliyat sifatida aniq belgilangan. Ayblov esa jinoiy ta'qibning muayyan bosqichi bo'lib, shaxsga nisbatan rasmiy ayb qo'yish bilan cheklanadi. Ushbu yondashuv protsessual aniqlikni ta'minlab, shaxs huquqlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, da'vo va ayblov o'rtasidagi o'xshashlik faqat xususiy ayblov ishlariga xos bo'lib, bunda jabrlanuvchining tashabbusi va manfaatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ommaviy ayblov ishlarida ayblov davlat nomidan amalga oshiriladigan jinoiy ta'qibning natijasi sifatida namoyon bo'lib, uni fuqarolik-huquqiy da'vo bilan tenglashtirish mumkin emas.

Mazkur xulosalar asosida jinoyat-protsessual qonunchilikda jinoiy ta'qib tushunchasini normativ jihatdan mustahkamlash, ayblovning mazmuniy va funksional chegaralarini aniq belgilash hamda xususiy va ommaviy ayblov institutlarini terminologik jihatdan farqlash zarur, degan ilmiy xulosa chiqarildi.

Tadqiqot natijalari tahlili ayblov, da'vo va jinoiy ta'qib tushunchalarining normativ va amaliy jihatdan aniq chegaralanmaganligi jinoyat-protsessual faoliyatda muayyan muammolarni yuzaga keltirayotganini aniqlash imkonini berdi. Shu bois milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda mustaqil tarzda o'z ifodasini topgan "ayblov" tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq anglash uchun uning "jinoiy ta'qib" kategoriyasi bilan qiyosiy tahlil qilinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunday tahlil ushbu tushunchalarning umumiy va farqli jihatlarini ochib berish, shuningdek, ularning jinoyat-protsessual faoliyatdagi o'rni va funksional ahamiyatini aniq belgilash imkonini beradi.

Shu kungacha olimlar orasida "jinoiy ta'qib" va "ayblov" tushunchalarining o'zaro nisbatiga oid yagona fikr shakllanmagan. Xususan, ba'zi tadqiqotchilar jinoyat-protsessual faoliyatda ayblovning mazmuni jinoiy ta'qibdan iborat, deb hisoblaydilar. O'ylashimizcha, bunday qarash shakllanishiga asosiy sabab – bu XX asrning 60-yillarigacha SSSRning jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud bo'lgan "jinoiy ta'qib" tushunchasi "ayblov" tushunchasi bilan almashtirilganligidadir. Masalan, 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksida ham "jinoiy ta'qib" tushunchasi "ayblov"ga o'zgartirilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin (Criminal Code of the Uzbek SSR, 1971).

Biroq F.M. Muxitdinov jinoiy ta'qib tushunchasi jinoyat sodir etishda fosh etilgan shaxslarga ayblov e'lon qilish hamda ularning huquqlarini cheklash vakolatiga ega organlar va mansabdor shaxslarning faoliyati bilan bog'liq davlatning qo'riqlav funksiyasidan tashkil topganligini, shu sababli JPKdagi "ayblovni yuritish" iborasi aslida jinoiy ta'qib funksiyasining tushunchasini to'liq ifoda qilmasligini, JPKning normalarida "ayblov" iborasidan emas, balki "jinoiy ta'qibni amalga oshirish" kabi asosli ilmiy iboralardan foydalanish o'rinli bo'lishini ta'kidlaydi (Muxitdinov, 2012). Yana bir qator olimlar ham jinoiy ta'qib ayblovga nisbatan kengroq tushuncha ekanligini asoslashga harakat qilgan (Brooks & Neil, 2021). Darhaqiqat, amaldagi huquqni qo'llash tajribasida jinoiy ta'qib faqatgina shaxsga nisbatan ayb e'lon qilish bilan cheklanib qolmaydi. U jinoyat sodir etilganligini aniqlash, gumon qilinuvchini topish, tegishli tergov harakatlarini amalga oshirish va aybdor shaxsni javobgarlikka

tortish kabi keng qamrovli jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, ayblov jinoiy ta'qibning tarkibiy qismi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Demak, jinoiy ta'qib va ayblov tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi, biroq mazmunan bir-biriga to'liq teng bo'lmagan huquqiy kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Jinoiy ta'qib keng qamrovli huquqiy-ijtimoiy jarayon bo'lib, u jinoyatni ochish, gumon qilinuvchini aniqlash, tergov harakatlarini amalga oshirish va aybdorni javobgarlikka tortish bosqichlarini qamrab oladi. Ayblov esa ushbu jarayonning keyingi bosqichida vujudga kelib, uning tarkibiy elementi sifatida xizmat qiladi. Biroq amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "jinoiy ta'qib" atamasi umuman qo'llanilmagani, uning o'rnida faqat "ayblov" tushunchasi ishlatilgani diqqatga sazovor.

Biroq O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi "Reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi 18-sonli qarorida "jinoiy ta'qib" tushunchasi qonun hujjatlari darajasida qo'llanilgan. Bu holat "jinoiy ta'qib" atamasining milliy qonunchilikdagi mavjudligi va amaliyotdagi huquqiy ta'sirini ko'rsatadi, shuningdek, uning ayblov tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish imkonini yaratadi.

Bu holat ikki tushunchaning chegaralari aniq belgilanmaganidan, natijada ayblovning mazmuni amalda kengayib ketganidan dalolat beradi. Shu bois jinoiy ta'qib va ayblov kategoriyalarini huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning aniq chegaralarini belgilash va JPKga tegishli o'zgartirishlar kiritish dolzarb masala hisoblanadi. Agar ushbu tushunchalarning huquqiy tabiati va o'zaro nisbati aniq belgilanmasa, bu nafaqat huquqni qo'llash amaliyotida turli noaniqliklarga olib kelishi, balki shaxsning protsessual huquqlari ta'minlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunonchi, ayblovning huquqiy mohiyati, undagi asosiy elementlar va chegaralar aniq belgilanmagan hollarda, ayblov qo'yish jarayonida protsessual kafolatlar buzilishi, shaxsga nisbatan noqonuniy ta'qib olib borilishi yoki vakolatli organlar tomonidan subyektiv yondashuvlar vujudga kelishi ehtimoli ortib boradi.

Shu nuqtayi nazardan, ayblov tushunchasining tadrijiy rivojlanishi uning huquqiy ta'rifini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki ayblov faqat protsessual harakat sifatidagina emas, balki uning mazmuni jinoyat tarkibi, subyektiv va obyektiv tomonlari, jinoiy javobgarlik shartlari hamda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining qonuniy faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, ayblovning mazmun va vazifalarini aniqlash, uning jinoyat-protsessual huquqiy institut sifatidagi o'rnini belgilash ehtiyoji mavjud bo'lib, bu ehtiyoj yuridik adabiyotlarda shakllangan ayblovni da'vo sifatida talqin qilishga asoslangan yondashuv bilan hamohangdir (Azizov, 2020; Magherescu, 2021). Ushbu yondashuvda ayblov jinoyat-protsessual faoliyat sifatida boshlanishiga sabab sifatida jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsning yoki uning huquqini himoya

qilayotgan vakilning buzilgan huquqlarni tiklash maqsadidagi murojaati (da'vosi, talabi) ko'riladi. Aynan ushbu murojaat ayblov yoki da'vo mazmunida bo'lib, ayblov funksiyasining mohiyatini ifodalaydi hamda ayblovning ayrim turlarida fuqarolik va iqtisodiy protsesslardagi da'vo xususiyatlari aks etadi. Shu sababli ham ayblovga nisbatan da'vo sifatida qarash shakllangan. Biroq bunda ayblovga mutlaqo da'vo sifatida yondashish mumkin emas, chunki uning huquqiy tabiati jinoyat-protsessual huquqining umumiy qoidalariga asoslangan holda turlicha namoyon bo'lishi mumkin.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida bu holat ayblovning kim tomonidan va qanday shakllarda amalga oshirilishiga bog'liq ravishda tasniflanadi (Rashidov, 2022): 1) xususiy (jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atiladigan) ayblov; 2) ommaviy (davlat) ayblov; 3) aralash (xususiy-ommaviy) ayblov.

Xususiy ayblov bo'yicha ishlar jabrlanuvchi tomonidan ilgari suriladi, chunki bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi jabrlanuvchining subyektiv idroki va uning oqibatlariga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Natijada xususiy da'vo (xususiy ayblov) jarayoni yuzaga keladi, unda jabrlanuvchi ayblov – da'voni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqaradi: ishni qo'zg'atish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organga shikoyat beradi, ayblanuvchi bilan yarashgani tufayli jinoyat ishi sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilishi mumkin. JPKning 325-moddasida jabrlanuvchining shikoyati bilan jinoyat ishi qo'zg'atiladigan ishlar sanalgan bo'lib, ushbu modda xususiy ayblov mazmunini o'zida aks ettiradi. D.Sh. Bekmatovanning fikricha, xususiy ayblov tartibidagi jinoiy ta'qib deganda jabrlanuvchining murojaati jinoyat ishini qo'zg'atish hamda uni tugatish uchun asos bo'ladigan jinoiy ta'qib tushuniladi (Bekmatova, 2020).

Xususiy ayblov ishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu turdagi ishlar jabrlanuvchining shaxsiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lib, davlat manfaatlariga bevosita daxl qilmaydi. Lekin davlat jinoyat ishlarini yuritishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish hamda ularning boshqa shu kabi konstitutsiyaviy huquqlarini amalda ta'minlash maqsadida shunday tartib belgilagan. Zero O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko'ra, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ayblov turlaridan (ommaviy, xususiy va aralash) faqatgina bittasi – xususiy ayblovdagina fuqarolik protsessidagi da'vo institutining ayrim elementlari mavjud degan xulosaga kelish mumkin. "Da'vo" mavzusida tadqiqot ishlarini olib borgan protsessualist olim E. Egamberdiyev "da'vo" tushunchasiga batafsil ta'rif bergan. Uning fikricha, da'vo – bu buzilgan huquqni yoki qonuniy manfaatni himoya qilishdan bevosita manfaatdor bo'lgan shaxsning o'z huquqini yoki qonuniy manfaatini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishini ko'rib hal qilish to'g'risidagi moddiy-huquqiy talab bilan sudga qilgan murojaati, sudda fuqarolik ishini qo'zg'atish asosi va buzilgan huquqni hamda qonuniy manfaatni himoya qilishning asosiy protsessual vositasi hisoblanadi (Egamberdiyev, 1994).

Darhaqiqat, xususiy ayblov shaklidagi ishlarning boshlanishi uchun ham avval ta'kidlanganidek jabrlanuvchi tomonning arizasi bo'lishi talab etiladi hamda jinoyat ishining qanday hal etilishi ko'p jihatdan uning xohish-irodasiga bog'liqdir. Chunki bunday ishlarning boshlanishi, davom etishi yoki tugatilishi jabrlanuvchining o'z huquqlarini amalga oshirish istagi bilan bog'liq. Mazkur holatlarda, jabrlanuvchi ariza bilan murojaat qilmasa, ish qo'zg'atilmaydi. Shuningdek, jinoyat ishini qo'zg'atish va uning davomida jabrlanuvchining faollik darajasiga qarab, jinoyat protsessining umumiy mazmuni shakllanadi. Agar jabrlanuvchi ariza bersa va ishni davom ettirishni xohlasa, bu holda sud ishni nazarda tutib, tegishli tadbirlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, jabrlanuvchi tomonning arizasi bilan ishga ta'sir etish, ayniqsa, ayblanuvchiga nisbatan qanday choralar ko'rilishi, qonun bilan belgilangan protsessual tartibga rioya etish zarurligini taqozo etadi. Bu esa jinoyat protsessidagi xususiy ayblov (yoki da'vo) institutidagi xususiyatlar fuqarolik protsessidagi da'vo institutiga o'xshashligidan darak beradi. F.M. Muxitdinov fuqarolik-sudlov yurituvini bilan jinoiy-sudlov yurituvini normalarini qiyoslar ekan, ushbu ikkita sohada ayblov va da'vo institutlari o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatgan: "Ayblov-da'vo nazariyasida da'vog'ar kim ekanligi aniq emas, prokuror – davlat ayblovchisimi yoki jinoyat oqibatida zarar yetkazilgan jabrlanuvchimi? Prokuror va jabrlanuvchi qo'sh da'vog'ar bo'lishsa, unda ularning vakolatlari o'rtasida jiddiy farq mavjud. Jabrlanuvchi amalda prokuror ega bo'lgan vakolatlarga ega emas. Shunday qilib ayblovning jinoiy da'vo sifatida talqin qilish nazariyasida ilgari surilgan fikrlarni bizning jinoiy sud ishlarini yuritishga joriy qilish uchun jinoyat protsessidagi muayyan protsessual shakllarni o'zgartirish zarur bo'ladi" (Muxitdinov, 2012). Ushbu olimning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda shuni ta'kidlash mumkinki, xususiy ayblovda mavjud bo'lgan ayrim jihatlarni inobatga olmaganda, ayblovning ommaviy (davlat) ayblov hamda xususiy-ommaviy ayblov turlarida fuqarolik protsessidagi da'vo institutining deyarli hech qanday elementlari mavjud emas. Shuningdek, fuqarolik protsessida mavjud bo'lgan tartib va tuzilish bilan jinoiy sud ishlarini yuritishdagi tartib va manfaatlar o'rtasidagi mavjud farqlar ko'zga tashlanadi. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquqlari hamda prokurorning vakolatlari aniq belgilangan bo'lsa, fuqarolik protsessida bunday aniqlik yo'q, chunki da'vo mexanizmi ko'proq shaxsiy huquq va manfaatlardan kelib chiqadi.

Jinoyat protsessida ayblovga da'vo sifatida qarash bilan bog'liq nazariyalar shakllanishiga qadimgi Rimda mavjud bo'lgan tartib sababchi deyish mumkin. Qadimgi Rim imperiyasidagi klassik protsedurada (da'vo ish yurituvini) tomonlar sud muhokamasi borishiga ko'proq ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, ekstraordinar protsedurada pretorning irodasi asosiy o'rin tutgan, u davlat manfaatlarini ko'zlab harakat qilgan (Kuchma, 1998). Qadimgi Rim imperiyasi jinoyat protsessidagi klassik va ekstraordinar protseduralarning bosib o'tgan yo'lini retrospektiv tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimlar zamonaviy jinoyat-protsessual huquqida xususiy, ommaviy va xususiy-ommaviy ayblov turlarining shakllanishiga bevosita asos yaratgan. Bu tarixiy aloqadorlik zamonaviy jinoyat-



protsessual huquqining takomillashuviga va turli manfaatlarni muvozanatlashtirish mexanizmlarining shakllanishida muhim jihatlardan biridir. Shu sababli ham ayblovga jinoyat protsessidagi muhim institut sifatida nafaqat tergov va surishtiruv organlarining qonuniy faoliyati sifatida, balki ayrim hollarda (xususiyl ayblov nazarda tutilmoqda) jabrlanuvchining subyektiv xohish-irodasiga bog'liql jinoyat sodir etgan shaxsning aybini isbotlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ommaviy va xususiyl-ommaviy ayblov shakllarida davlat organlarining ishtiroki ustuvor bo'lib, bu holat ayblovning nafaqat shaxsiyl manfaatlarni himoya qilish, balki jamoatchilik va davlat manfaatlarni ta'minlash vositasi sifatidagi ahamiyatini ham ko'rsatadi. Bunday yondashuv ayblov institutining jinoyat-protsessual huquqidagi kompleks xususiyatini va uning jinoiyl ta'qib funksiyasi bilan uzviyl bog'liqligini tasdiqlaydi.

Ushbu ikki jihatning o'zaro muvofiqligi jinoyat protsessida moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bir tomondan, bu tizim davlat manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi, boshqa tomondan esa shaxsning ijtimoiyl xavfli harakatlari oqibatida buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli ayblov institutiga keng qamrovli yondashuv uning samaradorligini oshirib, uni batafsil tushunish imkonini beradi. Bu nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlab, Z.A. Farookiyl ayblovning jinoiyl odil sudlovdagi ahamiyatini ta'kidlaydi: "Jinoiyl odil sudlovni ta'minlashda ayblov instituti markaziy rol o'ynaydi. Samarali jinoiyl ta'qibsiz belgilangan maqsadlarga erishish imkoni yo'ql. Ayblov faqat ish qo'zg'atilgandan so'ng boshlanmaydi, balki jinoyat sudi tomonidan yakuniyl qaror qabul qilinishiga qadar davom etadi. Agar ayblov zaif asosga tayansa, jinoiyl odil sudlov samarasiz bo'lib, prokurorlar uchun "o'lik otga jon kiritish"ga teng murakkab vazifaga aylanadi" (Farooqi, 1997). Darhaqiqat, jinoyat protsessining butun kuch va vositalari shaxsga qo'yilgan aybni isbotlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Xususan, qonun chiqaruvchi bu masalani hal etish uchun jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslari zimmasiga sodir etilgan ijtimoiyl xavfli qilmish bo'yicha haqiqatni aniqlash majburiyatini yuklaydi. Ya'ni JPKning 22-moddasiga asosan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek, u bilan bog'liql barcha holatlarni aniqlashi shart. Shu maqsadda jinoyatga oid ariza va xabarlar tekshiriladi, agar yetarli sabab va asoslar mavjud bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Lekin jinoyat-protsessual qonunchilikda muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish talabi mavjud emas. Xususan, JPKning 321-, 329-, 330-, 331-, 359-, 360-moddalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyat ishi nafaqat uni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan, balki sodir etilgan ijtimoiyl xavfli qilmishga (yoki hodisaga) nisbatan ham qo'zg'atilishi mumkin. Agarda F.M. Muxitdinov hamda Z.A. Farookiyl kabi olimlarning ayblovning rasman boshlanishi sifatida jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichi ekanligi haqidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlaydigan bo'lsak, ushbu faoliyat boshlanishi uchun gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi har doim ham mavjud bo'lishi talab etilmaydi, degan xulosa kelib chiqadi. B.K. Xudaybergenovning fikricha: "O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-

protsessual kodeksi 325-331-moddalari tahlili jinoyat ishining qo'zg'atilishi jinoyat sodir etilgan fakt bo'yicha ham, muayyan shaxsga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim jinoyatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish faqat ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslar aniq ko'rsatilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Ba'zan esa, aksincha, jinoyat sodir etgan shaxslar oldindan ma'lum bo'lib, ularning qilmishini tergov orqali tasdiqlash talab etiladi" (Khudayberganov, 2021). Mazkur xulosa ilmiy jihatdan asosli bo'lib, jinoyat-protsessual huquqida ayblovning shaxsga nisbatan qo'llanilishi yoki faqat faktlar asosida yuritilishi jinoyat ishini ko'rib chiqishning turli huquqiy mexanizmlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu xulosani asoslash uchun quyidagi argumentlarni keltirish mumkin.

Birinchidan, ayrim hollarda jinoyat protsessida asosiy e'tibor jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va qidirib topishga qaratilgan bo'ladi. Ikkinchidan, qonun chiqaruvchi jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asosiy ikki mezonni belgilagan: jinoyat sodir etilganligi to'g'risidagi sabab va yetarli huquqiy asoslar. Ammo bu mezonlar orasida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning mavjudligiga nisbatan alohida talab ko'rsatilmagan. Shu bois jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi har doim ham ayblovga yo'naltirilgan dastlabki bosqich sifatida baholanishi mumkin emas.

Mazkur bosqich ba'zan shaxs Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ushlangan paytda, ayrim hollarda esa shaxs ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilinib, unga rasmiy ayb e'lon qilingan vaqtda boshlanishi mumkin. Shunga ko'ra, ayblov faoliyatining dastlabki bosqichi jinoyat protsessining turli mexanizmlariga asoslanib, har bir jinoyat ishining xususiyatlaridan kelib chiqib individual yondashuvni talab qiladi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarga kelish mumkin.

Avvalo, "ayblov" va "jinoiy ta'qib" tushunchalari jinoyat-protsessual huquqda o'zaro uzviy bog'liq bo'lsa-da, ularni mazmun va funktsiya jihatidan to'liq aynanlashtirish ilmiy jihatdan asossizdir. Jinoiy ta'qib – davlatning jinoyat sodir etilganligiga munosabatini ifodalovchi keng qamrovli protsessual faoliyat bo'lib, u jinoyat haqidagi xabarni tekshirish, jinoyat ishini qo'zg'atish, gumon qilinuvchini aniqlash, tergov harakatlarini amalga oshirish va aybdorni javobgarlikka tortish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ayblov esa mazkur jarayonning muayyan bosqichida vujudga kelib, shaxsga nisbatan rasmiy ayb e'lon qilish va uni sud muhokamasi predmetiga aylantirish funksiyasini bajaradi.

Ikkinchidan, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "jinoiy ta'qib" tushunchasining normativ jihatdan mustahkamlanmagani ayblov mazmunining sun'iy ravishda kengayishiga olib kelmoqda. Bu holat ayniqsa jinoyat ishini qo'zg'atish, ayblovni shakllantirish va uni o'zgartirish bosqichlarida protsessual noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda hamda shaxsning protsessual huquq va kafolatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Uchinchidan, tadqiqot doirasida ayblov va jinoiy ta'qibni farqlash uchun quyidagi aniq mezonlarni belgilash maqsadga muvofiq deb topildi:

vaqt mezon: jinoiy ta'qib jinoyat haqidagi xabar tekshirilgan paytdan boshlanishi mumkin bo'lgan jarayon bo'lsa, ayblov faqat shaxs ayblanuvchi sifatida ishga jalb etilgan paytdan vujudga keladi;

funksional mezon: jinoiy ta'qib jinoyatni fosh etish va aybdorni aniqlashga qaratilgan faoliyatni ifodalasa, ayblov shaxsning jinoiy javobgarligini asoslash funksiyasini bajaradi;

subyektiv mezon: jinoiy ta'qib surishtiruv, tergov va prokuror nazoratini o'z ichiga olgan davlat faoliyati sifatida namoyon bo'ladi, ayblov esa asosan prokuror (davlat ayblovchisi) yoki qonunda belgilangan hollarda jabrlanuvchi tomonidan ilgari suriladi;

protsessual natija mezon: jinoiy ta'qib natijasida jinoyat ishi qo'zg'atilishi yoki tugatilishi mumkin bo'lsa, ayblovning asosiy natijasi uning sud muhokamasi predmetiga aylanishida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, ayblovga "da'vo" sifatida yondashuv faqat xususiy ayblov ishlariga nisbatan cheklangan holda qo'llanilishi mumkin. Chunki aynan shu toifada jabrlanuvchining tashabbusi, uning irodasi va manfaatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ommaviy va xususiy-ommaviy ayblov ishlarida esa ayblov davlat nomidan amalga oshiriladigan jinoiy ta'qibning natijasi sifatida namoyon bo'ladi va uni fuqarolik-huquqiy da'vo bilan tenglashtirish mumkin emas.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, qonunchilikka quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "jinoiy ta'qib" tushunchasini mustaqil protsessual kategoriya sifatida normativ jihatdan mustahkamlash hamda ayblovning mazmuni va uning jinoiy ta'qibdan farqlovchi belgilarini qonun darajasida aniq ifodalash.

Xulosa qilib aytganda, ayblov institutining mazmuni, uning jinoiy ta'qib va da'vo tushunchalari bilan o'zaro nisbati aniq huquqiy mezonlar asosida belgilab olinishi jinoyat-protsessual qonunchilikdagi konseptual noaniqliklarni bartaraf etishga, huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga hamda shaxsning protsessual huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Azizov, J. (2020). Criminal procedural function of the accusation and its realization in the activities of the military prosecutor. *Gosudarstvo i pravo [State and Law]*, 5, 153–158.
2. Barabash, A. S. (2005). Sootnoshenie obvineniya i ugolovnogo presledovaniya [Correlation of prosecution and prosecution]. *Aktualnye problemy yuridicheskoy nauki [Current Issues in Legal Science]*, 756–761.

3. Bekmatova, D. Sh. (2020). O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessida jinoiy ta'qib funksiyasining shakllanishi va uni takomillashtirish [Formation and improvement of the function of criminal prosecution in the criminal process of the Republic of Uzbekistan] (p. 15). [Abstract of PhD Dissertation]. Tashkent.
4. Brooks, S. K., & Neil, G. (2021). Psychological impact of being wrongfully accused of criminal offences: A systematic literature review. *Medicine, Science and Law* 61(1), 44–54.
5. Churilov, S. N. (2015). O sootnoshenii ponyatiy "funktsiya obvineniya", "ugolovnoe presledovanie" i "obvinenie" [On the Correlation of the Concepts "Function of Charge," "Criminal Prosecution," and "Charge"]. *Vestnik MGPU. Seriya: Yuridicheskie nauki* [Bulletin of MSPU. Series: Legal Sciences], 3(19). <https://cyberleninka.ru/article/n/o-sootnoshenii-ponyatiy-funktsiya-obvineniya-ugolovnoe-presledovanie-i-obvinenie>
6. Criminal Code of the Uzbek SSR. (1971). With amendments and additions until 1971, January 1 (p. 211). Tashkent: O'zbekiston Publ.
7. Egamberdiyev, E. (1994). *Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari* [Problems of lawsuit in civil procedure law] (p. 8). Tashkent: Adolat Publ.
8. Farooqi, Z. A. (1997). *The role and function of prosecution in criminal justice*. United Nations Asia and Far East Institute Publ.
9. Information message on criminal cases considered by courts in 2024. <https://sud.uz/ru/news-2025-02-07-1-2/>
10. Kachalov, V. I. (2014). *Ugolovno-protsessualnye funksii. Ugolovno-protsessualnoe pravo* [Criminal Procedure Functions. Criminal Procedure Law] (p. 1060). Moscow: Yurayt Publ.
11. Khudaybergenov, B. (2021) Aktualnye problemy vozbuzhdeniya ugolovnogo dela publichnogo obvineniya [Actual problems of initiating a criminal case of public prosecution]. *Society and Innovations*, 1, 135–137. <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-vozbuzhdeniya-ugolovnogo-dela-publichnogo-obvineniya>
12. Kuchma, V. V. (1998). *Gosudarstvo i pravo Drevnego mira: Kurs lektsiy po istorii gosudarstva i prava zarubezhnykh stran* [State and Law of the Ancient World: Course of Lectures on the History of State and Law of Foreign Countries]. Volgograd: Ofset Publ.
13. Magherescu, D. (2021). Achieving Accusation by Means of Forensic Science During the Criminal Proceedings in Romania. *Rev. Brasileira de Direito Processual Penal*, 7, 1287.
14. Mukhitdinov, A. A. (2020). Sudoproizvodstvo v Bukharskom emirate [Judicial proceedings in the Emirate of Bukhara]. *Gosudarstvo i pravo* [State and Law], 10, 129–135.
15. Muxitdinov, F. M. (2012). *Jinoyat protsessida ta'qib faoliyatini takomillashtirishning nazariy, amaliy va qonunchilik muammolari* [Theoretical, practical, and legislative problems of improving prosecution activities in criminal proceedings] (pp. 86–91). Tashkent: Falsafa va huquq Publ.
16. Open data of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan. <https://prokuratura.uz/#/ochiqmalumot>



17. Pushkarev, V. V. (2017). Formirovanie ponyatiya i konsepsii ugolovnogo presledovaniya (obvineniya) [Formation of the concept and concept of criminal prosecution (accusation)]. *Vestnik ekonomicheskoy bezopasnosti [Bulletin of Economic Security]*, 3, 56–59.

18. Rashidov, B. N. (2022). *Teoreticheskiy analiz chastnogo obvineniya v kachestve osnov ugolovno-protsessualnoy deyatel'nosti [Theoretical analysis of private prosecution as a basis of criminal procedural activity]*.

19. Saidov, Z. A., & Khayrulloev, F. S. (2008). Protsessualnye formy primeneniya norm shariata v Bukharskom emirate [Procedural forms of application of Sharia norms in the Bukhara Emirate]. *Trudy Akademii MVD Respubliki Tadjikistan [Proceedings of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Tajikistan]*, 11, 168–192.



KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2025-yil 4-son